



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K: 616.33-006:579.835.12:616-073.75

**MAVZU: XORAZM VILOYATI SHAROITIDA PROFILAKTIK KO'RIKLAR VA ME'DA
SARATONI.**



Abdullayeva Nargiza Erkinovna²

Urganch davlat tibbiyot instituti, Akusherlik va ginekologiya, onkologiya kafedrası assistenti.

E-mail: nargiza.abdullayeva.0303@bk.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0349-0825>

Tel: +998903261303



Tojiddinov Otaxon Abdullayevich¹

Respublika Ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya ilmiy amaliy markazi Xorazm filiali
direktori.

E-mail: dr.otahon@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-1506-6058>

Tel: +998 94 313 02 90

**TOPIC: PREVENTIVE SCREENINGS AND GASTRIC CANCER IN THE CONDITIONS
OF KHOREZM REGION.**

Abdullayeva Nargiza Erkinovna²

Assistant of the Department of Obstetrics and Gynecology, Oncology, Urgench State Medical
Institute

E-mail: nargiza.abdullayeva.0303@bk.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0349-0825>

Tel: +998903261303

Tojiddinov Otaxon Abdullayevich¹

Director of the Khorezm Branch of the Republican Specialized Scientific-Practical Center of
Oncology and Radiology.

E-mail: dr.otahon@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-1506-6058>

Tel: +998 94 313 02 90



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ТЕМА: ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ОСМОТРЫ И РАК ЖЕЛУДКА В УСЛОВИЯХ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.

Тождидинов Отахон Абдуллаевич¹

Директор Хорезмского филиала Республиканского специализированного научно-практического центра онкологии и радиологии

E-mail: dr.otahon@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-1506-6058>

Тел.: +998 94 313 02 90

Абдуллаева Наргиза Эркиновна²

Ассистент кафедры Акушерства и гинекологии, онкологии Ургенчского государственного медицинского института

E-mail: nargiza.abdullayeva.0303@bk.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-0349-0825>

Тел.: +998 90 326 13 03

Annotasiya. Dolzarbligi. Har yili dunyo bo'yicha o'rtacha 1 000 000 yangi holatlar xisobga olinadi. O'zbekiston aholisi orasida tarqalishi bo'yicha sut bezi va bachadon bo'yni saratonidan keyin 3-o'rinni, kasallanish ko'rsatkichi bo'yicha 2-o'rinni va o'lim ko'rsatkichi bo'yicha 5-o'rinni egallaydi. Kasallanish ko'rsatkichi har 100 000 axoliga 3.9; tarqalganlik xar 100 000 axoliga 13.9 va o'lim ko'rsatkichi 28.4% tashkil qiladi. Yosh kesimida ko'radigan bo'lsak 75% xolatlarida 50-75 yoshda xisobga olinadi. **Maqsad.** Profilaktika ko'riklar va ommaviy skriningning me'da saratonining tarqalishiga ta'sirini o'rganish. **Natija.** Profilaktik ko'riklarda aniqlangan me'da saratoni: 2015-yilda 5.6% holatlarda profilaktik ko'riklarda aniqlangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 10.6%gacha, 2024-yilda esa 28.1%gacha o'sgan. **Xulosa.** Xorazm viloyatida yangi kasallanish holatlari tahlil qilinganda so'ngi 8 yil davomida sezilarli o'zgarish aniqlanmasada, umumiy aholi 16%ga o'sishi kuzatilgan. Bu o'tkazilayotgan profilaktik ko'riklar va skrining tekshiruvlari natijasidir.

Annotation. Urgency. Every year, an average of 1,000,000 new cases are recorded worldwide. Among the population of Uzbekistan, it ranks 3rd in prevalence after breast cancer and cervical cancer, 2nd in incidence rate, and 5th in mortality rate. The incidence rate is 3.9 per 100,000 population; the prevalence is 13.9 per 100,000 population; and the mortality rate is 28.4%. When viewed by age groups, 75% of cases are registered between the ages of 50 and 75. **Purpose:** To study the impact of preventive examinations and mass screening on the prevalence of gastric cancer. **Results.** Gastric cancer detected during preventive examinations: in 2015, 5.6% of cases were identified through preventive check-ups; this indicator increased to 10.6% in 2020 and reached 28.1% in 2024. **Conclusion.** Analysis of newly diagnosed cases in the Khorezm region shows that although no significant change was observed over the last 8 years, the overall population increased by 16%. This is the result of the ongoing preventive examinations and screening programs.

Аннотация. Актуальность. Ежегодно в мире регистрируется в среднем 1 000 000 новых случаев заболевания. Среди населения Узбекистана рак желудка занимает 3-е место по распространённости после рака молочной железы и рака шейки матки, 2-е место по уровню заболеваемости и 5-е место по смертности. Показатель заболеваемости составляет 3,9 на 100 000 населения, распространённости — 13,9 на 100 000, уровень смертности — 28,4%. По возрастной структуре 75% случаев регистрируются в возрасте 50–75 лет.

Цель. Изучить влияние профилактических осмотров и массового скрининга на распространённость рака желудка. **Результаты.** Доля случаев рака желудка, выявленных при профилактических осмотрах, увеличилась с 5,6% в 2015 году до 10,6% в 2020 году и достигла 28,1% в 2024 году. **Вывод.** Анализ новых случаев заболевания в Хорезмской области показал,



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI
1-TOM, 4-SON. 2025
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

что за последние 8 лет значительных изменений в заболеваемости не наблюдалось, однако численность населения увеличилась на 16%. Это связано с расширением профилактических осмотров и скрининговых программ.

Muammoning dolzarbligi. Me'da saratoni dunyo bo'yicha aholi o'limiga sabab bo'luvchi yetakchi sababligicha qolmoqda. Xar yili dunyo bo'yicha o'rtacha 1 000 000 yangi holatlar xisobga olinadi. O'zbekiston aholisi orasida tarqalishi bo'yicha sut bezi va bachadon bo'yni saratonidan keyin 3-o'rinni, kasallanish ko'rsatkichi bo'yicha 2-o'rinni va o'lim ko'rsatkichi bo'yicha 5-o'rinni egallaydi. Kasallanish ko'rsatkichi har 100 000 axoliga 3.9; tarqalganlik xar 100 000 axoliga 13.9 va o'lim ko'rsatkichi 28.4% tashkil qiladi. Yosh kesimida ko'radigan bo'lsak 75% xolatlarida 50-75 yoshda xisobga olinadi.

Me'da saratoni skriningi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Yaponiyada 1960-yillarda yoppasiga gastroskopiya boshlangan. 1983-yilda tekshiruv 40 yoshdan oshgan axoli qamrab olingan(4).

Koreya amaliyotida, Milliy Saraton Skriningi Dasturi doirasida 1999-yildan beri 40-74 yoshdagi insonlar orasida gastroskopiya o'tkaziladi. Tekshiruv 2005-yilgacha bepul bo'lsada, keyinchalik qisman to'lov orqali amalga oshirilgan. Kuzatishlar natijasiga ko'ra skrining kasallanish va o'lim ko'rsatkichini kamaytirgan(1,2,3).

Xitoyda me'da saratoni skriningi 2003-yilda 40-69-yoshdagi qishloq aholisi orasida boshlangan va 2011-yildan shaxar aholisini qamrab olgan, hamda 70% kasallik erta bosqichda xisobga olingan. Dastlab mahsus savolnomalar orqali yuqori xavf guruhiga kiruvchi qatlam ajratib olingan va endoskopiya taklif qilingan. Ushbu dastur doirasida 50 000 nafar axoli qamrab olingan va 10 000 nafari ajratib olinib gastroskopiya tavsiya qilingan (8,9). 2011-yilda nashr qilingan Technical plan for Early diagnosis and Treatment of Cancer dastur bo'yicha skrining tekshiruvi sifatida 2 ta tekshiruv: endoskopiya va qon zardobida pepsinogenning aniqlash xar uch yilda bir marta o'tkazish tavsiya qilingan(5).

Shuni ta'kidlash kerakki, sharqiy Yevropa va AQShda me'da saratoni dasturi mavjud emas. Buyuk Britaniya assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra so'ngi 10 yillikda kasallanish ko'rsatkichi kamayishi kuzatilmogda va bu holat skrining tekshiruvlarining samarasi deb baholanmogda. Vaholanki, me'da saratonini diagnostik usullari va boshqa keraksiz tahlillar uchun sarflanadigan chiqim skrining uchun ishlatiladigan mablag'dan bir necha marta ortiq ekanligi isbotlangan(5,6).

Maqsad. Profilaktika ko'riklar va ommaviy skriningning me'da saratonining tarqalishiga ta'sirini o'rganish.

Vazifalar.

Xorazm viloyatida me'da saratoni kasallanish ko'rsatkichi 10 yillik dinamikasini o'rganish.

Xorazm viloyatida 5 yillik endoskopiya natijalari tahlili.

Xorazm viloyatida 1 yillik kontrastli rentgenologik tekshiruv natijalarini o'rganish.

Me'da saratoni va saraton oldi kasalliklarini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma qaratilgan o'tkazish.

Xorazm viloyatida yangi kasallanish holatlari va demografik tahlili.

Material va metodlar.

- Xorazm viloyatida 2015-2024-yillarda me'da saratoni kasallanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi.
- 11 ta tumanda o'tkazilgan endoskopik va kontrastli rentgenologik tekshiruv natijalari retrospektiv tahlili.
- 11 ta tumanda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.

Tekshiruv predmeti.

- RIO va RIATM Xorazm filiali tashkiliy uslubiy bo'lim statistik ma'lumotlari.
- Xorazm viloyati Tuman tibbiyot birlashmasi endoskopik va rentgen xonalari ma'lumotlari.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025


14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

- MIY kasallikalarini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalari.

NATIJALAR.


Me‘da saratoni bilan kasallanish ko‘rsatkichi har 100 000 aholiga o‘rtacha 6.6 holatni tashkil qiladi. Xorazm viloyati aholisi misolida 2015-2024-yillar ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda eng yuqori kasallanish 2016-,2017- va 2023-yillarda kuzatilgan bo‘lib, tegishli ravishda 7.2, 7.3 va 7.2ni tashkil qilgan(1-jadval).

Bosqichlar kesimida ko‘rilganda dastlabki 3 yil davomida 13-15% me‘da saratoni I, II bosqichlarda hisobga olingan bo‘sa ushbu ko‘rsatkich 2024-yilda 42.2%ni tashkil qilgan(2-jadval). **Xorazm viloyati uchun 2015–2024 yillar oralig‘ida me‘da saratoni bilan kasallanish ko‘rsatkichlari (100 000 aholiga nisbatan).**



(1-jadval)

Me‘da saratonining I-II bosqichda aniqlanish (% , 2015-2024 y.y.)



(2-jadval)




TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Profilaktik ko'riklarda aniqlangan me'da saratoni: 2015-yilda 5.6% holatlarda profilaktik ko'riklarda aniqlangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 10.6%gacha, 2024-yilda esa 28.1%gacha o'sgan(3-jadval).

Profilaktik ko'riklar natijasida me'da saratoni aniqlanishi (% , 2015-2024 y.y.)



(3-jadval)

Xorazm viloyatidagi aholi o'rtasida oshqozon-ichak trakti o'smalarini erta aniqlash maqsadida tarqatilgan anketalar (so'rovnomalar) natijalari.

- Umumiy tekshirilganlar soni: 40 300 nafar aholi
- Me'da saraton oldi kasalliklari: 576 nafar bemor (bu jami tekshirilganlarning 1,4 % ini tashkil etadi)
- Me'da saratoni: 10 nafar bemor (bu jami tekshirilganlarning 0,02 % ini tashkil etadi)

2024-yil selektiv skriningda aniqlangan ksalliklar(rentgenologik tekshiruv).

- 56 (2,4%) nafar aholida ezofagit
- 559 (23,7%) nafar aholida
- 431 (18,3%) nafar aholida duodenit aniqlandi
- 93 (3,9%) nafar aholida 12 barmoq ichak yarasi aniqlandi.
- 88 (3,7%) nafar aholida me'da yarasi aniqlandi.
- 88 (3,7%) nafar aholida me'da yarasi aniqlandi.
- 22 (0,9%) nafar aholida rentgenologik me'da saratoni aniqlandi

Selektiv skrining. Gastroskopiya n=918 ayol va n=1204 erkak aholida, jami 2122 nafar aholida o'tkazildi. Shulardan 859 nafari 40 yoshgacha hamda 1263 nafari 40 yoshdan oshgan insonlardir. Natijada 6.7% aholida me'da surunkali kasalliklari, 1.9%da me'da saratoni aniqlangan.

Ommaviy skrining sifatida gastroskopiya 26 802 nafar aholida qo'llanilganda 2.8% aholida me'da saraton oldi kasalliklari, 0.008%da me'da saratoni aniqlangan(4-jadval).

Endoskopik va rentgenologik tekshiruv natijalari.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
1-TOM, 4-SON. 2025
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tekshiruv turi	Qamrovi	Me‘da saraton oldi kasalliklar	Me‘da saratoni
EGDFS (Ommaviy skrining)	n=26 802	n=748 (2,8 %)	n=21 nafar (0,08 %)
EGDFS (selektiv skrining)	n=2122	n=142 (6,7%)	n=41 (1,9%)
MIY kontrastli rengen tekshiruvi	n=2 354 nafar	n=1227(52,1%)	n=22 (0,9%)

(4-jadval).

Yangi hisobga olingan bemorlar tahlil qilinganda 2017-yilda n=131 bemor hisobga olingan, ushbu ko‘rsatkich 2020-, 2024-yillarda tegishli ravishda n=132 va n=135ni tashkil qilgan(5-jadval).

Xorazm viloyati demografik ko‘rsatkichlari. Xorazm viloyati umumiy aholisi 2014-yilda 1 684 000 nafarni tashkil qilgan bo‘lib, 2024-yilda 2 002 000 ga yetgan(6-rasm)(9).

Xorazm viloyatida 2017-2024-yillarda yangi aniqlangan bemorlar.

Yil	umumiy	ayol	erkak	1- bosqich	2- bosqich	3-bosqich	4-bosqich
2017	131	46	85	0	2	103	25
2018	116	51	65	4	18	69	25
2019	128	43	85	4	25	71	28
2020	132	60	72	2	43	70	17
2021	124	40	104	0	43	60	12




TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
1-TOM, 4-SON. 2025
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

2022	103	35	68	8	41	40	14
2023	143	30	113	8	45	73	17
2024	135	48	87	8	49	66	12

(5-jadval).

Xorazm viloyati demografiyasi.



(6-rasm).

Xulosalar.

1. Me'da saratoni bilan kasallanish ko'rsatkichlari 2015-yilda har 100 000 aholiga 6,6 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda 6,9 nafar va 2024-yilda 6,6 nafarni tashkil qilgan. Bu 10 yil davomida umumiy kasallanish ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar yo'qligini ko'rsatadi.
2. 5 yil davomida 28 924 nafar aholida endoskopik teshiruv o'tkazilgan va shulardan n=21 nafar (0,08 %) aholida ommaviy skrining va n=41 (1,9%)da erta saraton aniqlangan. Umumiy xisobda 3 % aholida me'da saraton oldi kasalliklari aniqlangan va davolanishi orqali malignizatsiyalanishining oldi olingan.
3. 1 yil davomida n=2354 aholida MIY kontrastli rentgen tekshiruvi o'tkazish orqali n=1227(52,1%)da me'da surunkali kasalliklari va n=22 (0,9%) da me'da saratoni aniqlangan.
4. n=40300 aholida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida 1,2% aholida me'da surunkali kasalliklari va 0,02% aholida me'da saratoni aniqlangan. O'tkazilgan profilaktik ko'riklar umumiy kasallanish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir qilmasada bosqichlar kesimida ko'rilganda erta aniqlanish holatlarining ko'payishi bemorlar yashovchanlik ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladi.
5. Xorazm viloyatida yangi kasallanish holatlari tahlil qilinganda so'ngi 8 yil davomida sezilarli o'zgarish aniqlanmasada, umumiy aholi 16%ga o'sishi kuzatilgan. Bu o'tkazilayotgan profilaktik ko'riklar va skrining tekshiruvlari natijasidir.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Correa P. The biological model of gastric carcinogenesis. IARC Sci Publ 2004;157:301–310.
2. Sakaki N, Kozawa H, Egawa N., Tu Y., Sanaka M. Ten-year prospective follow-up study on the relationship between Helicobacter pylori infection and progression of atrophic gastritis, particularly assessed by endoscopic findings. Aliment Pharmacol Ther. 2002;16 Suppl 2:198–203.
3. Rugge M., Genta R. M. Staging and grading of chronic gastritis. Human Pathology. 2005; 36: 228–233.
4. Rugge M., Correa P., Di Mario F. et al. Dig. Liver Dis. 2008;40 (8): 650–658.
5. Wang J, Xu L, Shi R, et al. Gastric atrophy and intestinal metaplasia before and after Helicobacter pylori eradication: a meta-analysis. Digestion 2011;83:253–260.
6. Choi K. S., Jun J. K., Suh M. et al. Performance of different gastric cancer screening methods in Korea: a population-based study. PLoS One, 2012, no. 7, pp. e50041. doi: 1371/journal.pone.0050041
7. HELICOBACTER PYLORI АССОЦИИРОВАННЫЙ РАК ПИЩЕВОДА И КАРДИОЭЗОФАГЕАЛЬНОЙ ЗОНЫ А.А. Юсупбеков, Б.Б. Усманов, Х.Х. Хамидов. MALIGNANT TUMOURS Russian Society of Clinical Oncologyтом / vol. 13 #3s1 • 2023.
8. Tibbiyotda yangi kun. 9 (83) 2025. ISSN 2181-712X. EiSSN 2181-2187. Bet-285-289.
9. <https://www.xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/17358-xorazm-viloyatining-doimiy-aholisi-soni>.

